

QOLIPLASHTIRISH USULI VA BOSQICHLARI:

Mohinur Mo'min qizi Raxmatilloeva

Navoiy davlat universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya: Maqolada o'zbek tilini modellashtirish metodi orqali o'rganish va uning afzalliklari haqidagi fikrlar, ayrim o'zbek tilidagi sintaktik qoliplar, qoliplashtirish usullari va bosqichlari, ularning qanday amalga oshirilishi masalalariga alohida e'tibor qaratilgan.

Tayanch so'zlar: lingvistik model, lisoniy sintaktik qolip, sodda gap qoliplari, modellashtirish, usul, bosqich.

Tilshunoslikda qoliplashtirish usuli o'z ifoda ko'lamini yillar o'tgani sayin kengaytirib bormoqda. Bugungi kunda uning ustida an'anaviy tilshunoslikka qaraganda keng qamrovli tadqiqotlar rivojlanmoqda. Jumladan, kompyuter lingvistikasi fani uchun ehtimoliy qoliplar yaratilgani buning isboti. Ushbu metod jahon tilshunosligida o'tgan asrning o'rtalarida chuqur tadqiq etilgan, fikr hamda mulohazalar jamlanib, bir nechta monografiya va tadqiqot ishlari olib borilgan. XXI asr boshlaridan buyon esa o'zbek tilida ham ayrim tilshunoslik yo'nalishlariga oid ilmiy izlanishlar qilinmoqda. Muhim tomoni shundaki, tilshunoslik muammolariga bag'ishlangan aksariyat tadqiqotlarda "qoliplashtirish" atamasi ko'p qo'llaniladi. "Qolip" biror bir nutqiy birlikni ma'lum shaklga keltirish usuli sanaladi. U turfa fikr, qarash va tushunchalarni o'z ichiga oladi hamda insonlararo muloqotni, turli uslubdagi nutqiy hosilalarni lisoniy qolipda shakllantiradi. Aslida esa bitta lisoniy sintaktik qolip bir nechta nutqiy hosilalarni umumlashtirgan hisoblanadi.

Modellashtirish, ya'ni qoliplashtirish har bir fan obyektni soddalashtiruvchi metoddir. Lingvistik birliklarni soddalashtirish bu belgilar tarkibidagi elementlarning barqaror munosabatlariga asoslanadi. Shuning uchun ham butunlik tarkibidagi elementlar o'rtasida munosabatlarning barqaror va beqaror turlarga ajratilishi lingvistik modellashtirish uchun muhim ahamiyatga ega.

Qoliplashtirish usuli haqida gap ketganda shuni ta'kidlash joizki, tilshunoslikda gapni qoliplashtirish uch xil bosqichda amalga oshiriladi va shu ravishda gapning uch xil qolipi aniqlanadi:

- 1) gapning yuza qurilish qolipi;
- 2) gapning ichki qurilish qolipi;
- 3) gapning mohiyatli (zotiy) - lisoniy qolipi.

Gapning yuza qurilish qolipi nutqiy hosilalarning umumlashmasi sifatida hosil qilinadi.

Har qanday tilni bir necha usullar orqali modellashtirish mumkin. masalan, ona tilimizni ham umumiydan xususiylga qarab, ya'ni tayyor qolipdan hosilalar chiqarish orqali qoliplashtirish yoki xususiyladan umumiyga qarab, ya'ni nutqiy birliklarning avval lisoniy,

soʻng sintaktik qoliplarini aniqlash orqali modellashtirish mumkin. Bunda birinchi usul orqali tilni modellashtiradigan boʻlsak, avvalo, tillardagi tayyor modellarni izlash toʻgʻri yoʻl hisoblanadi. Jumladan, jahon tilshunosligida koʻp yillar davomida tillarni oʻrganish yoxud paralingvistikaning asosi hisoblanmish ayrim til qoliplari noun + verb kabi umumiy modellardan qanday hosilalar chiqarish mumkinligi haqida bosh qotirish tilni birinchi usul orqali modellashtirish demakdir.

Ingliz tilidagi tayyor modellardan hosilalar yaratish orqali tilni oʻrganish tilshunoslar uchun tilni oʻzlashtirishning eng maqbul usuli sifatida qaraladi. Masalan:

1. **S+MV (to be)+Noun (Adj., P, N)=>E+OK**

I am a student =>Men talabaman.

2. **S+HV (to be)+MV-ing=>E+K (h.z)**

I am reading =>Men oʻqiyapman.

3. **S+modal verb (to be)+V (infinitive)=>E+T+K**

I am to begin the work =>Men ishni boshlashim kerak.

4. **S+modal verb (to be – oʻtg. zamon)+have to+M+PII=>E+T+K +edi**

I was have to begun the work =>Men ishni boshlashim kerak edi (bajarilmay qolgan ish-harakat)⁹.

Predikativlik (zamon, shaxs-son, tasdiq-inkor, mayl) belgisiga ega birlik gap hisoblanadi. Sodda gaplar esa bitta predikativlik belgisiga ega.

Ushbu gap qoliplaridan hosilalar chiqarish orqali tilni modellashtirish, yaʼni umumiydan xususiyga qarab qoliplashtirish birinchi usul sifatida qaraladi. Ustunda ajratib berilgan sodda gap qoliplari ingliz tili oʻrganuvchilari uchun toʻgʻri gap tuzish va ravon nutq yaratish uchun qanchalik muhim boʻlsa, uni boshqa til modellari bilan taqqoslashda ham shunchalik ahamiyatli hisoblanadi.

S+HV (to be)+MV-ing=>E+K

Avtomatik tarjima tizmi uchun esa qoliplar tayanch vazifasini bajaradi tarjima uchun kiritilgan qoliplar va ularga berkitilgan ehtimoliy nazariyalardagi hosilalar har qanday matnni toʻgʻri va aniq tarjima qilish uchun muhim manba boʻlib xizmat qiladi. Bu umumiy qoliplar xususiy hosilalarning yaxlitlovchisi demakdir.

Zero, koʻchirma gapli qoʻshma gaplar va ularda tinish belgilarining qoʻllanilishi mavzularida ham umumiy qoliplar mavzuni oʻzlashtirish obyekti boʻlib xizmat qiladi.

M:”K”. – Yurtboshimiz taʼkidlaganidek: “Farzandlarimiz bizdan koʻra baxtli boʻlishlari shart”. - bunda muallif gapi koʻchirma gapdan oldin kelgani uchun ular orasida ikki nuqta tinish belgisi ishlatilgan boʻlsa, koʻchirma gap darak gap boʻlganligi sababli undan soʻng nuqta ishlatilgan. Koʻchirma gaplar qoʻshirnoqqa olinishi barchaga maʼlum. Endi qoliplashtirishning ushbu usulida biz mana shu qolipdan hosilalar chiqarishga urinamiz. Yaʼni berilgan:

⁹ Abduraxmonova N. Mashina tarjimasining lingvistik taʼminoti.-T.: Muharrir,2018 -B.175.

M: "K!", M: "K?", M: "K", - m., "K", - m., - "k".

"K!"-m. ushbu qoliplar bizni undan hosilalar chiqarib tildan to'g'ri foydalanishimiz uchun oqilona yechim hisoblanadi.

Xususiyan umumiyga qarab qoliplashtirish usuli esa nutqiy hosilalarni, ya'ni so'z birikmasi, gaplarning o'zidan qolipini tuzish orqali amalga oshiriladi, ushbu usul ham mashina tarjimai tizimida katta ahamiyat kasb etadi. Jumladan, so'z birikmalari belgisi, belgisiz; gaplar o'z va o'zgargan (inversiya) ko'rinishida bo'lishidan qat'i nazar o'z holiga keltirilib, uning lisoniy sintaktik qolipini aniqlash mumkin.

Adabiyotimizdagi manbaalarda berilgan jummalarni keltirish birinchi bosqich:

Bahor keldi, seni so'roqlab. = E+T+H+K. (Zulfiya)

Inversiyani o'z holiga qaytaradigan bo'lsak, Bahor seni so'roqlab keldi. Shunda qolip quyidagicha bo'ladi.

E+T+H+K. Ammo biz uni inversiya holida ham qolipini yaratib, asl holidagi qolipi bilan teng munosabatda deyishga ham haqlimiz.

E+K, T+H. = E+T+H+K.

Xuddi mana shu nutqiy qoliplardan minglab hosila gaplar yaratish mumkin.

Shuningdek, so'z birikmalarida ham belgisi yoki belgisiz ishlatilgan holatida, bir mazmunni ifodalovchi birikmalar bir qolipda birlashtiriladi.

Uzum yemoq, uzumni yemoq bilan bir xil qolipdan yasalgan hosila sifatida qaraladi.
[ot tushum kelishigi +fe'l]

Gulning bargi - gul bargi bilan bir qolipdan hosil qilinganligi aniq.

[ism qaratqich kelishigi +ism egalik qo'shimchasi]

Faqat kesimdan: Keldi. - K.

ega va kesimdan: Bahor keldi. - E + K.

hosil bo'lgan yig'iq gaplar yoki

ikkinchi darajali bo'lakli gaplar ham: O'lkamizga bahor keldi. H + E + K.

asosan badiiy, so'zlashuv uslubida, ba'zan hujjat talabiga ko'ra rasmiy uslubda ham inversiya holatiga uchraydigan gaplar ham tilshunoslikda mavjud sintaktik qoliplardan tuzilganligi ma'lum.

Gul burkadi o'lkamga bahor. Gap tartibini o'z holiga keltiramiz:

Bahor o'lkamga gul burkadi. - E + H + T + K.

Kel yugurib, vaqtimiz oz. Gap tartibini o'z holiga keltiramiz:

Vaqtimiz oz, yugurib kel. - E + K, H + K.

Berildi ushbu ma'lumotnoma. Gap tartibini o'z holiga keltiramiz:

Ushbu ma'lumotnoma berildi. - A + E + K.

Ammo bunda inversiya holatdagi gaplarning qolipi aniqlashtirilib, tilshunoslikdagi mavjud qoliplarga tenglashtirilganda, ya'ni

Birinchi gapda: T + K + H + E. = E + H + T + K.

Ikkinchi gapda: $K + H, E + K. = E + K, H + K.$

Uchinchi gapda: $K + A + E. = A + E + K.$

Demak, bir lisoniy qolip atrofida bir necha nutqiy qoliplar birlashadi, ma'lum bir til ustida ishlash jarayonida ushbu ehtimoliy qoliplar birlashtirilib, uning lisoniy qolipi so'ng sintaktik qolipi keltirilganda esa til yaxlit jarayonda, aniqlanishi oson bo'lgan bir nechta umumiy qoliplar atrofida yig'iladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Qurbonova M. Hozirgi zamon o'zbek tili (Sodda gap sintaksisi uchun materiallar). – Toshkent: Universitet, 2002.
2. Sayfullayeva R., Mengliyev B., Boqiyeva G. va b. Hozirgi o'zbek adabiy tili. O'quv qo'llanma. – Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2009.
3. Nazarova S.A. Occurens of Paradigmatic Relationship in Objective Associations. International Scientific Journal. Theoretical & Applied Science. –USA, Philadelphia. Issue: 11, Volume:79.
4. Назарова С. [Жинс-тур] муносабатини билдирган сўз бирикмалари // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент
5. [O'zbek tili grammatikasi II tom, 1978: 31]
6. Abduraxmonova N. Mashina tarjimasining lingvistik ta'minoti. Toshkent: Muharrir, 2008
7. Abjalova M. Tahrir va tahlil dasturlarining lingvistik modullari: monografiya .- T.: Nodirabegim, 2020;
8. Turabov A.M. Turg'un so'z birikmalari – kichik sintaksis ob'ekti sifatida // Ta'limda innovatsion texnologiyalar xalqaro jurnali | Международный журнал инновационные технологии в образовании | International journal innovative technologies in education №2 (2022) <http://kimweb.uz> Natlib.diss.uz
9. Uralov A. Nomutanosiblik atamasi va uning talqinlari // O'zbekiston Milliy universiteti xabarлари, 2021. №1/5/2
10. [en.wikipedia.org. /wiki/history_machine_translation](http://en.wikipedia.org/wiki/history_machine_translation)
11. Ziyouz com.